

**YANGI O'ZBEKISTON DAVLAT SIYOSATIDA DUNYOVIYLIK
TAMOYILI**

Kenjayev Maqsud Negmat o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti,
Magistratura bosqichi magistranti
kenjayevmaqsud06@gmail.com
+998979621999

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi Yangi O'zbekiston davrida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida davlat boshqaruvida dunyoviylik tamoyilining mustahkamlanish jarayoni yoritiladi. Asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda belgilangan dunyoviylik prinsipi, vijdon erkinligi, mafkuraviy betaraflik va ta'lim tizimining diniy ta'sirdan xoli tashkil etilishiga qaratilgan. Shuningdek, 2025-yilda qabul qilingan "Vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati Konsepsiyasi" asosida davlatning diniy institutlardan ajratilganligi va boshqaruvda huquqiylik ustuvorligini ta'minlashga oid siyosiy-ideologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Xalqaro tajribalar bilan qiyosiy yondashuv orqali O'zbekistonning sekulyar boshqaruv modeliga asoslangan taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, konstitutsiyaviy islohotlar, dunyoviylik tamoyili, vijdon erkinligi, sekulyar boshqaruv, Konstitutsiya 2023, davlat va din ajratilishi, demokratik institutlar, huquqiy davlat, diniy bag'rikenglik, O'zbekiston tajribasi, xalqaro huquq, boshqaruv islohotlari,

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida dunyoviylik tamoyilining davlat siyosatiga chuqur integratsiyalashuvi dolzarb masala hisoblanadi. Konstitutsiyaviy islohotlar, institutsional o'zgarishlar va ijtimoiy hayotdagi barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi chora-tadbirlar aynan dunyoviylik prinsipining huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlarini kuchaytirishga

qaratilgan. Bunda asosiy maqsad davlat va din o'rtasidagi chegaralarni aniq belgilab, fuqarolarning e'tiqod erkinligi va diniy betaraflik huquqini kafolatlash bilan bir qatorda, jamiyatda bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilgi yangi tahriri davlatning dunyoviy xarakterini alohida huquqiy kafolat bilan mustahkamladi. Xususan, 1-moddada O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb aniq belgilab qo'yilgan¹. Mazkur prinsip faqat deklarativ normalar bilan emas, balki amaliy siyosiy yondashuvlar, qonunchilikdagi izchil islohotlar va ijtimoiy hayotdagi institutsional mexanizmlar orqali ham o'z aksini topmoqda. Davlatning dunyoviyligi uning barcha sohalarda, xususan, ta'lim, sud-huquq tizimi, diniy tashkilotlar bilan munosabatlar, axborot siyosati va inson huquqlarini ta'minlashdagi faoliyatida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Dunyoviylik prinsipining mazmuni davlatning hech bir diniy mafkuraga asoslanmasligi, barcha e'tiqoddagi fuqarolarga teng yondashuvi, dinni davlatdan ajratgan holda boshqaruv yuritishi orqali ifodalanadi. Bu yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra diniy erkinlikni cheklovchi emas, balki uni huquqiy asosda kafolatlovchi printsiptir. Ayniqsa, 2025-yil 25-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini dunyoviylik tamoyilining huquqiy jihatdan takomillashtirilgan ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qonun diniy tashkilotlarning maqomi, faoliyat yuritish tartibi, davlat bilan o'zaro munosabatlari va diniy ta'limga doir normalarni aniq huquqiy asosda tartibga soldi².

Yangi O'zbekiston sharoitida dunyoviylikni ifodalovchi asosiy yo'nalishlardan biri bu ta'lim tizimining betarafligi, ya'ni ilm-fan yutuqlari asosida shakllantirilgan bilimlar tizimiga tayanishdir. Umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida darslik va o'quv dasturlarining dunyoviy, ilmiy va

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

² O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2025-y., 03/25/1037/0187-son

ratsional asoslarda tuzilishi, diniy targ'ibotdan butunlay xoli bo'lishi ta'limdagi dunyoviylikning amaliy ifodasidir. Bu bilan davlat ta'lim orqali fuqarolarning tanlov erkinligini, tanqidiy tafakkurini, fan asosida shakllanadigan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltiradi.

Shu bilan birga, dunyoviylik tamoyili diniy tashkilotlar faoliyatida ham o'z aksini topadi. Ular konstitutsiyaviy tartib asosida davlatdan ajratilgan, biroq davlat ularning qonuniy faoliyat yuritishini kafolatlaydi. Bu degani – davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi, lekin ularning faoliyati davlat qonunchiligiga zid bo'lmasligini ta'minlaydi. Bu orqali diniy ekstremizm va radikalizmning oldini olish, ijtimoiy barqarorlikni saqlash va millatlararo hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qilinadi.

Davlat siyosatining muhim elementi sifatida dunyoviylik axborot siyosatida ham aks etadi. Ommaviy axborot vositalarining diniy masalalarni yoritishda betaraflikni saqlashi, diniy konfessiyalar orasidagi muvozanatga putur yetkazmaydigan yondashuvda ishlashi nazarda tutiladi. Shu bilan birga, axborot makonida diniy ekstremistik g'oyalar va radikalizm targ'ibotining oldini olish bo'yicha ham qat'iy qonunchilik choralari ishlab chiqilgan.

Huquqiy davlat barpo etish yo'lida dunyoviylik printsipining yana bir muhim jihati – fuqarolarning diniy e'tiqod asosida kamsitilmasligi kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida diniy adovat qo'zg'atish, diniy erkinlikni buzish, majburiy e'tiqodga undash kabi holatlarga qarshi jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu esa davlatning fuqarolarning diniy erkinligini qonuniy himoya qilishdagi qat'iy pozitsiyasini ifodalaydi.

Yangi O'zbekiston sharoitida dunyoviylik nafaqat huquqiy norma, balki jamiyatning sotsial va ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi tamoyil sifatida qaralmoqda. Milliy qadriyatlar, diniy an'analar va zamonaviy demokratik institutlar o'rtasidagi uyg'unlik davlat siyosatining muvozanatli yondashuvi sifatida shakllanmoqda. Bu esa dunyoviylik prinsipining jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajribaga nazar solsak, demokratik davlatlarda dunyoviylik tamoyili

davlatning barqarorlik, inson huquqlari va ijtimoiy taraqqiyotdagi yutuqlarining asosi sifatida namoyon bo'lmoqda. Fransiya, Turkiya, Hindiston kabi mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, dunyoviylik diniy erkinlik va ijtimoiy tinchlikni ta'minlash uchun eng maqbul modeldir. O'zbekistonning yangi qonunchilik amaliyoti ham ana shu xalqaro tamoyillar asosida shakllanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston davlat siyosatida dunyoviylik tamoyili – bu faqat konstitutsiyaviy norma emas, balki amaliy boshqaruv strategiyasi, fuqarolik jamiyatining asosi, din va davlat o'rtasidagi sog'lom chegarani saqlovchi mexanizm, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlovchi tamoyildir. Bu prinsip davlat boshqaruvida ijtimoiy adolat, inson huquqlarini himoya qilish, sog'lom ta'lim va barqaror taraqqiyotning kafolati sifatida muhim o'rin tutadi. Shu bois, Yangi O'zbekistonning siyosiy huquqiy modelida dunyoviylik tamoyilining ustuvorligi strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi to'g'risida [O'RQ-1037-sonli Qonun].
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev. (2023). Yangi O'zbekiston strategiyasi – erkin va farovon jamiyat qurish yo'lida.